

O'zbekiston va Belarus Prezidentlari telefon orqali muloqot qildilar



30-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida Belarus yetakchisi O'zbekiston Prezidenti va ko'p millatli xalqini yurtimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy muborakbod etdi.

Davlatimiz rahbari, o'z navbatida, Belarus Prezidentini tavallud kuni bilan dildan qutlab, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Ko'p qirrali O'zbekiston-Belarus hamkorligini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari yuqori sur'at bilan ortib borayotgani, ikki mamlakat yetakchi korxonalar va kompaniyalari, ta'lim muassasalari o'rtasida muvaffaqiyatli kooperatsiya amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi, shu jumladan Belarus tomoni raisligidagi MDH sammitiga tayyorgarlik ko'rish masalalari ko'rib chiqildi.

Manba